

Nortojoyeva Sofiya
Qarshi davlat universiteti
2-bosqich talabasi

HOZIRGI O‘ZBEK DOSTONCHILIGIDA LIRIK KECHINMA TASVIRI

Annotatsiya: maqolada hozirgi o‘zbek dostonchiligida lirik kechinma tasviri haqida gap borgan.

Kalit so‘zlar: o‘zbek dostonchiligi, lirik chekinma, tasvir.

Nortojoyeva Sofia
Karshi State University
Grade 2 student

THE DEVELOPMENT OF LYRICAL EXPERIENCE IN MODERN UZBEK EPICS

Annotation: the article discusses the depiction of lyrical experiences in contemporary Uzbek epic poetry.

Key words: Uzbek epic poetry, lyrical retreat, image.

Dostonchilik xalqimiz ma’naviyatida asosiy o‘rinlardan birini egallaydi. “Uni kuylovchi baxshilar nodir ma’naviy boyliklarni mukammallashtirishda muhim vazifani amalga oshirishadi. Ular yuksak insoniy fazilatlarni o‘zida mujassamlashtirgan obrazlarni badiiy qayta ishlash orqali asarning g‘oyaviy mazmunini yanada chuqurroq ildiz otishiga zamin hozirlashadi”[1]. Baxshilar o‘zlarining yuksak xotirasi, xonandalik qobiliyati, jonli xalq tilining xassos bilimdoni sifatida asrlar osha kelayotgan epik an’analarni, boy va rang-barang

eposni avloddan avlodga yetkazishda ko‘prik vazifasini o‘tab kelishmoqda. “O‘zbek baxshilari g‘oyaviy yo‘nalishda, epik repertuarining yagonaligi, ijro usuli va kuy – qo‘shiqda bir xil an‘anaga ega bo‘lsalarda bari bir ular o‘ziga xos uslub, ijro yo‘nalishlari, repertuar xarakteri bilan o‘zaro farqlarga ega. Bu hodisa dostonchilik maktablarini keltirib chiqaradi.

Dostonchilik maktablarining turlicha shakllanishiga xalqning etnogenetik tarixi ham jiddiy ta‘sir etadi[3]. Chunki har qanday etnik guruh o‘zining qadimiy an‘analarini barqaror saqlaydi. Buni Xorazmdagi dostonchilik maktablarida yaqqol ko‘rish mumkin. San‘atshunos olim B.Matyoqubov o‘z risolasida Bola baxsh bergan ma‘lumotga asoslanib Xorazm dostonchiligini uch do‘konga (do‘kon-manzil, makon, hudud ma‘nosida) bo‘ladi.

Yuqori do‘kon. Bu do‘kon o‘z ichiga shartli ravishda Turkmanistonning Lebob viloyati (Chorjo‘y), Darg‘on ota, Pitnak tumanlarini qamrab oladi. Bu do‘kon baxshilarining kuy yo‘llari mo‘tadil bo‘lib, dutorlarining hajmi ham Farg‘ona-Toshkent dutorlariga o‘xshashligi bilan ajralib turadi. Mazkur do‘kondan Xo‘jayoz baxshi, Amin baxshi, Murod baxshi, Eshniyoz baxshi va boshqalar yetishib chiqqan. Uning markazini shartli ravishda Hazorasp deb belgilash mumkin.

O‘rta do‘kon o‘z ichiga Xiva, Xonqa, Yangiariq, Urganch, Qo‘shko‘pir, Shovot tumanlarini birlashtiradi. Uning markazini shartli ravishda Xiva shahri sifatida belgilash mumkin. Ushbu do‘kon baxshilarining kuylari jo‘shqin va o‘ynoqidir. Ularning dutori ham yuqori va quyi do‘konlarnikidan kichikroqdir. Ularga xos yana bir xususiyat dutorga bulomon va doirada jo‘r bo‘lishadi. Bu do‘konning vakillari Eshvoy baxshi, Matniyoz go‘rja (G‘aribniyoz), Nurmamat cho‘loq va boshqalardir

Xullas, O‘rta do‘kon Xorazmda asosiy dostonchilik markazi bo‘lib, uning namoyandalari sifatida Avaz bola, Nurilla chig‘atoy, Ernafas baxshi, Matyoqub qori, uning o‘g‘illari Hasan va Sayid baxshilar, Bekjon baxshi, Abdrim baxshi,

Usmon baxshi (Bola baxshining bobosi), Buva baxshi, Jumanazar baxshi va nihoyat Bola baxshilarni tilga olish mumkin.

Oshoq (quyi) do‘kon – Gurlan, Toshovuz, Ko‘hna Urganch, Xo‘jayli kabi Amudaryoning quyi oqimidagi hududlarni o‘z ichiga oladi. Uning markazini shartli ravishda Mang‘it shahri deb belgilash mumkin. Bu hudud baxshilari ko‘pincha yakka dutor jo‘rligida doston kuylashadi. Do‘konning yorqin namoyondalaridan biri Rizo baxshi bo‘lib, u Feruzning xos baxshisidir. Shuningdek, Ernazar baxshi, Suyav baxshi, Otajon baxshi va boshqalar ham o‘sha do‘kon uslubida doston kuylashgan.

Xorazm dostonchiligi an‘analarining ildizlari juda qadimiy va murakkabdir. Chunki bu o‘lkada migratsiya jarayonlari faol bo‘lib, uzoq davom etgan forsiy va turkiy xalqlar aralashuvi natijasida dostonchilik an‘analari ham evolyutsiyaga uchragan. Bu jarayon XX asrgacha davom etib kelgan. Bu masala maxsus tadqiqotlarda tahlil etilgan[5]. Xorazm dostonlari, baxshichilik maktablari xususida folklorshunos S.R.Ro‘zimboev ham ko‘pgina mulohazalarni bildirgan. Uning qayd qilishicha, vohada ikkita dostonchilik an‘anasi mavjud:

1. Janubiy Xorazm dostonchiligi an‘analari.

2. Shimoliy Xorazm dostonchiligi an‘anasi.

Ushbu tasnif muallifining aytishicha, Hazorasp markazi bo‘lgan “yuqori do‘kon” an‘analari XX asr boshlarida Janubiy Xorazm dostonchiligi an‘analari bilan singishib ketgan.

Dastlab Janubiy Xorazm dostonchiligi an‘analari haqida so‘z yuritadigan bo‘lsak, ushbu dostonchilikning ildizlari juda qadimiyligi bilan ajralib turadi. XI asrga kelib o‘g‘uz turklarining eron tilli aholi bilan chatishuvining kuchayishi tilning turkiylashish jarayonini tezlashtirdi, o‘zini sart nomi bilan atovchi substrat aholi turkiy tilli superstrat bilan birlashib, yangi bir etnik guruhni shakllantirdi. Bu guruh vakillari hozirgi o‘g‘uz lahjasida gapiruvchi o‘zbek aholisining eng qadimgi avlodlari bo‘lib, ular Xorazmning janubiy tomoniga joylashganlar. O‘sha sababga

ko'ra, bu hududdagi dostonchilikda qadimgi xorazmiylarga xos an'analarning saqlanib qolganligi tabiiydir.

Shimoliy dostonchilik vakillari vohaga ko'chib kelgandan so'ng to XX asr boshlarigacha ichki tovushda kuylaganlar. Buni 1822 yilda Xivaga kelgan N.Muravyov kuzatishlari ham tasdiqlaydi. Shu sababli ular dastlab qo'bizdan foydalanishgan, so'ng dutor jo'rligiga o'tishgan. Shimoliy dostonchilikda baxshilarning badehago'ylik san'ati ancha faol ko'zga tashlanadi. O'z navbatida ular repertuaridagi dostonlar hajman ancha keng. Buni Tursun baxshi ijrosidagi "Huriliqo va Hamro" dostonining og'zaki variantini qo'lyozma nusxa bilan taqqoslaganda yaqqol ko'rish mumkin. Baxshi doston matniga xalq so'zlashuv tiliga oid ko'plab frazeologik iboralarni, maqol va matallarni, uchiriq so'zlarni kiritgan. Ayniqsa, uning ichki medial formulalari e'tiborga loyiq. Shimoliy dostonchilikning yana bir vakili Sakrak baxshi nutqida ushbu xususiyat yanada yorqinroq ko'rinadi. Uning saj' elementlariga e'tibor qaratish, auditoriya bilan muloqotda bo'lib, da'vat, buyruq, xitob, so'roq tarzida aloqa qilishi doston voqealarining tinglovchiga to'laqonli yetkazishda muhim omillar bo'lib xizmat qiladi. Shimoliy dostonchilikdagi ichki medial formulalardan foydalanish umumturkiy an'ana bo'lib, ular ozarbayjon, turkman baxshilari nutqida ham mavjud. Aslida bu usulning tarixini qadimgi eposdan izlash lozim.

"Kitobi dadam Qo'rqu" eposida ushbu an'ana to'laligicha namoyon bo'ladi. Shimoliy hududning To'rtko'l, Shabboz hududlarida yashagan ayrim baxshilarda yana bir an'ana borki, ularda baxshilik va jirovlik ijrosi birgalikda namoyon bo'ladi. To'rtko'llik Qo'shako'r va Qurbonboy jirov, Shabbozda yashagan Muso baxshilar ayni paytda qo'biz cholib jirovlik ham qilishgan. Umuman, xulosa qilib aytganda, ikki an'ananing qorishiq holda uchrashi o'zaro ta'sir va repertuar almashish natijasi hisoblanadi.

Adabiyotshunoslikda lirik asarlar janrini belgilash turli davrlarda turli mezonlarga bo'ysundirilgan. Antik davrlarda she'r mazmuniga qarab lirik janrlar belgilangan bo'lsa, she'riyatda kanonik janrlar hukm surgan davrlarda, janrni

belgilashda shakliy xususiyatlar hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan (7, 275). XX asrga kelib yana mazmun birinchi planga chiqadi, dunyo she'riyatida turg'un shakllarni inkor qilish, qat'iy ramkalar doirasidan erkinlik tomon intilish, ijodiy laboratoriyada yangi lirik janrlarni yaratish yoki an'anaviy janrlarga qo'rqmasdan o'zgartirishlar kiritish kabi umumiy tendensiya kuzatiladi. O'zbek shoirlari ham xorijiy adabiyotdan sonet, xokku, tanka, oktava, epigramma, epitafiya, rondo kabi lirik janrlarni o'zlashtirdilar va bu janrlarning mazmunini to'ldirib, ularning qurilishiga o'zgartirishlar kiritdilar.

Bugungi kunga kelib shoirlar laboratoriyasidan chiqqan lirik asarlarning janrini aniqlash murakkab muammoga aylandi. Janr – muayyan mazmunni shakllantirish va ifodalashga xizmat qiluvchi shakliy hodisa hisoblanadi. Janr o'zgarmaydigan yoki manguga shakllangan hodisa emas. U o'sib va o'zgarib, nafaqat mazmunni to'ldirib, balki o'z strukturasi ham o'zgartirib boradi. Bir janrdan ikkinchi janrning o'sib chiqishi tabiiy holatdir. Bunga misol qilib qit'a - g'azal - mustazod taraqqiyotini olishimiz mumkin.

Biz ushbu maqolada o'zbek shoirlarining ijodxonasida yaratilgan, tajribadan o'tib, ommalashgan ignabarg, ikkilik, uchchanoq (Anvar Obidjon), sachratqi (Go'zal Begim), fiqra, tasbeh (Farida Afro'z), qayirma (Azim Suyun) kabi yangi she'riy shakllar haqida fikr yuritmoqchimiz, chunki bugungu kunga kelib adabiyotshunosligimizda bir misralik, ikki misralik, uch misralik, besh misralik she'rlarga ham alohida janr sifatida qarash mavjud. Tadqiqotchi Q.Yo'lchiyev o'zining —O'zbek she'riyatida birlik va uchlik she'r poetikasini mavzusidagi tadqiqotida ignabarg, uchchanoq, fiqra kabi she'r shakllarini janr sifatida tahlil qilib bergan.

IGNABARG janri bir misrali she'rdir. Bu janr qadimiy bo'lib, ingliz adabiyotshunosi Ben Jonson XVI asrda bir misrali she'r mavjud ekanligini ta'kidlagan edi. Tadqiqotchi Qahhor Yo'lchiyev bir qatordan iborat she'rlarni lirik janr sifatida e'tirof etadi, lekin ayrim adabiyotshunoslar esa bir misrali she'rni —nasriy she'r deb ataydilar. Rus olimi, V. P. Burich bir qatorli she'rlarni nasr

ham emas, nazm ham emas, balki ikkalasining o'rtasidagi modifikatsion hodisadir, deb yozadi va bunday she'rlarni —udeteron|| (yunon: unisi ham, bunisi ham emas) deb nomlaydi. Turk olimi Mehmet Kaplan esa —birler||ni (bir misrali she'rlarni) mumtoz adabiyotimizning mufradlariga o'xshatadi, ifoda tarzi bilan —hikmatlar||ga ham yaqin turadi, deb hisoblaydi.

Ignabarg she'rlarda ohang, pafos va falsafa bo'ladi. Farida Afro'z, Faxriyor, Ulug'bek Hamdam, Shermurod Subhon, Go'zal Begim kabi ijodkorlar bir misrali she'rlar yozganlar, ammo maxsus nom bilan atamaganlar. Anvar Obidjon esa bunday she'rlarini —ignabarg|| deb nomladi.

Anvar Obidjonning ignabarg she'rlari o'quvchining qalbiga, tafakkuriga ignadek sanchiladi, qalbimiz, ongimiz sergaklashadi, juda qisqa she'rga yuklangan juda katta falsafani tafakkur qilishga majbur qiladi. Masalan, “Omin!. G'arbga yiqil, terakjon!” yoki “Qarmoq solsam, kulfat ilindi”. Shoirning barcha ignabarg she'rlari 9 bo'g'inli barmoq vazniga tushadi, lekin turoqlari har xil: 4+5, 4+2+3 va 4+3+2. Turoqlardagi bo'g'inlarning turlichaligi o'ziga xos musiqiylikni ta'minlagan. Ignabarglarda she'riy nutqning hissiy-ekspressivlik, musiqiylik, badiiy obraz, vazn, badiiy tasvir vositalari kabi barcha xususiyatlari mavjud. Masalan, —Bu qiz go'yo muzda o'sgan gul”; —Oshpichoq bu... juda imonli...”; ||Bas qil!” dedi. Baliq gapirdi||, —Sham ham shohdir Quyosh chiqqunchal she'rlarida antiteza yetakchi uslubiy vosita hisoblanadi. Shoir so'z, so'z birikmasi, iboralar yordamida turli fikr va timsollarni qarama-qarshi qo'yadi. Ikki qutb o'rtasidagi ziddiyat lirik qahramon holatini ochishga xizmat qiladi. Bir misrali she'rlarda gradatsiyadan ham unumli foydalaniladi. Qahhor Yo'lchiyev e'tirof etganidek, Anvar Obidjon so'z ma'nolarini biridan ikkinchisiga kuchaytirib boradi yoki aksincha kuchsizlantiradi. Masalan, “O'lma! Senda o'chim bor axir|| she'rida ma'no kuchayishi —o'lma – o'chim bor|| tarzda berilsa, “Qullik o'zi go'rkov, o'zi go'r!” she'rida ma'no tizimining kuchsizlanib borishi —go'rkov – go'r|| tushunchalari orqali yuzaga chiqqan.

IKKILIKLAR (Mahmud Toir) yoki SOCHILGAN BAYTLAR (Erkin Vohidov) – o‘zaro qofiyalanadigan ikki misra she‘r. Agar fard aruz vaznida yozilsa, ikkiliklar barmoqda yoziladi. Bunday qisqa she‘rlarda hikmatomuz fikrlar, olam va odamning yaratilishi haqida tasavvurlar, falsafiy mushohadalar qalamga olinadi. Qofiyalanishi: a-a. Masalan:

Erinchoq kam yashar nimaga desak,

Yashashi uchun ham hafsala kerak. (E.Vohidov)

Shohona kiyinib shoh bo‘lolsaysan,

Tunda jilva qilib moh bo‘lolsaysan. (Mahmud Toir)

SACHRATQI (Go‘zal Begim) – o‘zaro qofiyalanmaydigan ikki misra she‘r. Bu she‘riy shakl ixcham —oq she‘rlar dir, ya‘ni barmoq vazniga xos bo‘g‘inlar tengligi, turoqlar bor, lekin qofiyadosh so‘zlar qo‘llanmaydi. Modern she‘riyat ko‘rinishlariga o‘xshab tinish belgi ishlatilmaydi, chunki tinish belgi xayolning sarhadsiz maydoniga to‘siq bo‘ladi. Sachratqida ruhiyatning oniy holati qalamga olinadi. Qofiyalanishi: Masalan, Go‘zal Begimning bir sachratqisini e‘tiboringizga havola qilamiz:

O‘tayotib daraxt tagidan

Osmon haqda o‘yladim birpas

Bu she‘rning asosida —Nega daraxt osmonga talpinib o‘sadi? degan falsafiy savol yotibdi.

Bugungi kunda o‘zbek adabiyotshunosligi oldida turgan muhim vazifalardan biri Istiqlol davri o‘zbek she‘riyatidagi shakliy izlanishlar va ijodkor individualligi masalasiga alohida e‘tibor qaratish va yagona to‘xtamga kelishdir. Shoirlarning o‘zlari yangi janr deb e‘tirof etgan she‘riy shakllarni o‘quvchilarga ijodkor ustaxonasidan chiqqan yangi lirik janr deb taqdim qilish kerakmi yoki, ayrim tadqiqotchilarga ergashib, individual janrlarni ijtimoiy, psixologik jarayonlarda badiiy modifikatsiyaga uchragan she‘rlar sifatida o‘rgatishimiz kerakmi? Bizningcha, ignabarg, ikkilik, sachratqi, uchchanoq, qayirma, fiqra, tasbehlarda

janrga xos belgilar - muayyan mazmuni shakllantirsh va ifodalashga xizmat qiluvchi shakllarning mavjudligi ularni yangi lirik janrlar deb o'rganishimizga asos bo'la oladi.

Adabiyotlar:

1. Ben Jonson. Qaydlar yoki kuzatishlar // G'arb adabiy-tanqidiy tafakkuri tarixi ocherklari. — T.: Fan, 2008. — 209–221 b.
2. Farida Afro'z. Tasbeh. Chetki, Posary. So'zboshi muallifi Q. Yo'ldoshev. — T.: Sharq, 2007. — 218 b.
3. Mamiraliyev K.K. O'zbek she'riyatida shakliy izlanishlar va individuallik. Literature and Culture DOI: 10.36078/1673348607 205 O'zbekistonda xorijiy tillar, 2022, № 5 (46) - 201-218 b.
4. Фаизова, Ф. Ш. (2022). *Статейные списки российских посланников в Среднюю Азию XVII в. как лингвистический источник* (Doctoral dissertation, автореф. дис.... д-ра филос.(PhD) по филол. наукам. Ташкент).
5. Рогозинникова, Н. Г., & Третьякова, Е. Ю. (2022). Русское языкознание в Национальном университете Узбекистана: история, традиции, наследие. *Наследие веков*, (2 (30)), 24-46.
6. Фаизова, Ф. Ш. (2022). ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ И ЭКСТРАЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ В ТЕКСТАХ СТАТЕЙНЫХ СПИСКОВ XVII в. *Ответственный редактор*, 123.
7. Фаизова, Ф. Ш. (2021). Вопросы изучения статейных списков. *НЗ4 Наука и инновации в XXI веке: Материалы Международной*, 126.
8. Kadyrova, Z. Z. (2024). The Uzbek language corpus and the practical significance of forming the base of philological terms in it. *International Scientific Journal Theoretical & Applied Science*, 3(131), 98-100.
9. Kadirova, Z. Z. (2021). Shukur Holmirzayev asarlarida metaforalar. *Konferensiya*, 1(1), 179-185.

10. Кадирова, З. З. (2017). Из истории о перядке морфем в узбекском языке. Актуальные вызовы современной науки, 1(1), 16-20.